O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QASHQADARYO VILOYATI KO‘KDALA TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

181214, Ko‘kdala tumani, Umar Xayyom ko‘chasi, 77-uy Faks: (+99875) 230-14-59, t.kukdala@exat.uz

2023 - yil 31 - oktabr 209-4-224-Q/23 Ko‘kdala tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 10-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlar o‘rtacha sonining 10 foiz miqdorigacha (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 73 ta kvota ish o‘rinlari belgilash 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun

ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 3-bandiga muvofiq korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2024-yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin. Shu jumladan:

a) o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 32,8 foiz (24 kishi);

b) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 49,3 foiz (36 kishi);

v) safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 4 foiz (3 kishi);

g) nogironlar uchun 6,8 foiz (5 kishi);

d) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 2,7 foiz (2 kishi);

y) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 4,0 foiz (3 kishi).

4. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari hodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi zaxiraga qo‘yilishi va bundan yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi xabardor qilinishini ta’minlansin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin va bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limi birinchi chorak tamom bo‘lganidan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

7. Ushbu qarorda nogironlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha ish o‘rni tashkil etgan tashkilotlarga qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

8. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilangan.

9. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kuniga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo’limiga 3-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etsin.

10. Ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga asosan belgilangan tartibda kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslar uchun har bir hodimga 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi belgilab qo‘yilsin.

11. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

12. Tuman hokimining 2022-yil 17-oktabrdagi 84-4-224-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Do‘stov zimmasiga yuklatilsin.

14. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **X.Djurayev**

Ko‘kdala tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
209-4-224-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiyasi

T A R K I B I

T/r	F. I. Sh	Lavozim
1	B.Do'stov	tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A ’ Z O L A R I		
2	Sh.Xo'jamqulov	tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i o'rinbosari, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	Sh.Shokirov	Ko'kdala tuman IIB boshlig‘i
4	Sh.Suyunov	Ko'kdala tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5	G.Qarshiyeva	Chiroqchi tuman TMEK raisi

Ko‘kdala tuman hokimining
2023-yil 31-oktabrdagi
209-4-224-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Ko'kdala tumani bo‘yicha 2024-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumot

T/r	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Korxona va tashkilotlarning INN raqami	Shtat bo’yicha xodimlarning umumiy soni (shtat birlik)	Jami band qilib qo'yiladigan ish o'rinlari soni	Shu jumladan:						
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Umumiy o‘rta o‘rta maxsus, kasb hunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari son	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari son	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni
1	6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203262459	118	2	1	1					
2	79-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203309666	91	2		1		1			
3	66-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203320084	90	2	1	1					
4	78-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203320092	91	2	1	1					
5	43-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203547972	91	2	1	1					
6	55-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203549463	83	2	1	1					

7	Ko'kdala tuman 1-son kasb-hunar maktabi	205847108	83	2	1	1					
8	83-umumiy o'rta ta'lim maktabi	201846064	79	2		2					
9	14-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203269915	79	2		2					
10	8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203269890	82	2		2					
11	58-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203269947	79	2		2					
12	3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203542956	79	2		2					
13	Ko'kdala tuman tibbiyot birlashmasi	309590899	1256	36	14	14	2	4	1	1	
14	2-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	305910826	75	2		2					
15	3-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	203542956	76	2	1	1					
16	5-sonli davlat maktabgacha ta`lim tashkiloti	207060003	64	2	1	1					
17	Ko'kdala tuman Xokumligi Obodonlashtirish boshqarmasi	309577256	215	6	2	1	1		1	1	
18	'Chiroqchi istiqlol parrandachilik" MChJ	200702798	31	1		0				1	
Tuman bo’yicha jami:			**2762**	**73**	**24**	**36**	**3**	**5**	**2**	**3**	**0**